

## Kitob tafakkurni kengaytiradi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning joriy yilning 19 mart kuni Yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlari o'rtaida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tgan edi. Yig'ilishda davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Shu kunlarda mazkur tashabbus ijrosi doirasida respublikamizda qator amaliy tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Aynan to'rtinchı tashabbus yoshlari ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtaida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish bo'yicha "Yer resurslarini boshqarish" fakultetida ham bir qator ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, bugun "Yerdan foydalanish" kafedrasini hamda Oliy matematika kafedrasining professor-o'qituvchilar, fakultet dekan muovinlari, tashabbusi bilan 4 - chi talabalar turar joyida talaba-yoshlari o'rtaida men sevgan kitob mavzusida tadbir bo'lib o'tdi. Unda talaba-yoshlari amalga o'qishdan tashqari badiiy adabiyotlar o'qiyotganliklari, bugunga qadar talabalar nechta badiiy adabiyotlar o'qib tugatganliklari to'g'risida suhbatlar bo'lib o'tdi. Eng ko'p kitob mutolaa qilgan talabalarimiz munosib taqdirlandi. Albatta, bunday tadbirlar mamlakatimizda yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk bo'lib, tafakkuri keng yurtimiz ravnaqida xizmat qiladigan yoshlari bo'lib yetishlariga turtki bo'ladi degan umiddamiz.



**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**